


2022- yilning yanvar-martida Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-martida Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 5 689,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-marti bilan taqqoslaganda 3,7 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 108,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,5 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mird. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	5 065,9	5 689,2	103,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4 516,0	5 049,2	103,6
mahsulotlarga sof soliqlar	549,9	640,0	104,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	4 516,0	5 049,2	103,6
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	579,6	626,4	101,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 007,4	2 108,8	101,7
sanoat	1 633,9	1 684,2	101,8
qurilish	373,5	424,6	101,0
xizmatlar	1 929,0	2 314,0	106,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	265,0	303,1	102,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	289,7	394,2	132,8
boshqa xizmat tarmoqlari	1 374,3	1 616,7	101,3

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 2 914,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 % ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 88,8 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 11,2 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 12,4 % ni, sanoat tarmog'i 33,4 % ni, qurilish 8,4 % ni va xizmatlar sohasi 45,8 % ni tashkil qildi.



**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	89,1	88,8
mahsulotlarga sof soliqlar	10,9	11,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
<i>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i>	12,8	12,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	44,5	41,8
sanoat	36,2	33,4
qurilish	8,3	8,4
xizmatlar	42,7	45,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,9	6,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,4	7,8
boshqa xizmat tarmoqlari	30,4	32,0

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
 bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



2021- yil




2022- yil

Yalpi qo'shilgan qiymat

Mahsulotlarga soʻf soliqlar


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 101,2 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 12,4 %), sanoatda – 101,8 % (33,4 %), qurilishda – 101,0 % (8,4 %), xizmatlar sohasida – 106,2 % ni (45,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 102,8 % (6,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 132,8 % (7,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,3 % dan (32,0 %) iborat bo'ldi.

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,1 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,6 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 4,6 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,1 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 2,4 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,5 f.p. (2021- yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.)ga ko'paydi.

2022- yilning yanvar-martida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-martida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-martidagi narxlarga nisbatan 108,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 112,9 % va qurilishda – 112,5 % qayd etildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



2021-2022- yillarning yanvar-mart oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 43,9 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-martida – 44,0 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

